

## **Agentlikda tashuvchilar bilan uchrashuv**

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan koʻzlangan asosiy maqsadlardan biri xalqimiz farovonligini taʼminlashning muhim omili – tadbirkorlik va ishbilarmonlikka keng yoʻl ochishdan iborat.

Zero, har bir yurtdoshimiz oʻz imkoniyat va salohiyatini toʻla namoyon qilishi uchun respublikamizda yetarli huquqiy baza yaratilgan. Bu, oʻz navbatida, hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma obʼektlarini barpo etish, yangi ish oʻrinlari yaratish, aholining real daromadlarini oshirish garovi ekanligini endilikda xalqimiz oʻz kundalik hayoti misolida yaxshi tushunib, anglab borayotganligi sir emas.

Eʼtiborli jihati shundaki, keng koʻlamli islohotlar jarayonida Oʻzbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrda 378-sonli «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisida»gi Qonuni ijrosini taʼminlash doirasida ishlab chiqilgan Oʻzbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshligʻining hududiy boʻlimlarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish jadvaliga asosan 2016-yilning 12-fevral kuni Agentlik rahbari V. Ismoilov uchrashuv oʻtkazdi.

Uchrashuv Agentlik binosida tashkil etilgan boʻlib, Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududiy boʻlimi boshliqlari, mutaxassislari hamda avtomobil transportida yuk va yoʻlovchi tashish faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalarining vakillari ishtirok etishdi.

- Mana bir yil oʻtib, yana sizlar bilan uchrashib turibman, deb oʻz soʻzini boshladi Agentlik boshligʻi V.Ismoilov. - Albatta bir yil davomida sizni qiynab turgan muammolar boʻlishi mumkin. Bugun men sizlar bilan ochiq oydin gaplashib, imkoni boricha sizlarni qiynayotgan muammolarni , sizlar bilan birgalikda sizni yordamingiz bilan bartaraf etishga harakat qilaman.

Maʼlumki, 2014-yil 3-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisida"gi Qonun qabul qilinganligi, murojaatlarning shakllari, turlari, ularga qoʻyiladigan talablar, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarni berish va ularni koʻrib chiqish tartibi, muddatlari, murojaatlarni koʻrmay qoldirish asoslari, ularni koʻrib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda davlat organlarining majburiyatlari, moddiy

zararning o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish, murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka oid qoidalar haqida ta'kidlab o'tdi jumladan, ma'ruzachi.

Yig'ilishda avtokorxonalarining vakillari o'z faoliyatlarida duch kelayotgan muammolar yuzasidan shikoyat va takliflar bilan murojaat qildi. Agentlik boshlig'i barcha savollarga batafsil javob berdi.

Toshkent shahar "Xur Omad Trans" MChJ rahbari Yuldashev Rahmatilla yo'nalishsiz taksilarni litsenziyalashda qaror talablari asosida belgilangan ranglarga bo'yash noqulayliklar yaratayotganligi, imkoni bo'lsa barcha rangdagi yengil avtomobillarga yo'nalishsiz taksi faoliyati uchun litsenziya berishni va yo'nalishsiz taksilarda taksometrlar o'rnatilishi bilan bog'liq yuzaga kelayotgan muammolarni inobatga olib, avtomobillarni texnik ko'rikdan va haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish hamda saqlash uchun sharoitga ega bo'lgan avtokorxonalar bilan tuzilayotgan shartnoma narhlarini pasaytirishni so'radi.

Toshkent shahar "Aziz Baxt" MChJ rahbari Tashibov Baxtiyor avtotransportni ijaraga olishdagi mavjud qarama-qarshiliklarga e'tiborni qaratishni va haydovchilar tomonidan yo'l harakati xavfsizligi talablariga qat'iy amal qilinishini ta'minlashga alohida e'tibor berilishini va haydovchilar tomonidan litsenziya talab-shartlari buzilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan haydovchini o'ziga nisbatan chora ko'rishni aytib o'tdi.

Toshkent viloyati, O'rta-Chirchiq tumani "Shamshod trans servis" MChJ ta'sischisi Ra'no Davronova yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish Departamenti tomonidan 334-sonli yo'nalish biriktirib berilganligini, bu yo'nalishda 10ta "Gazel" rusumli avtotransport vositalari noqonuniy faoliyat olib borayotganini shikoyat qilib, o'z fikr-mulohazalari va takliflari bilan o'rtoqlashdi. Hususan, o'zi va boshqa tashkilotlar rahbarlari nomidan avtotransportda tashuvchilik bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, ularning ishlaridagi muammolarni hal etishda ko'maklashuvchi bir tashkilot ochib berishda amaliy yordam berishni so'radi.

"Sarbon" MChJ rahbari Ahmatqulov Azimjon g'alla va paxta yig'im-terimi mavsumida "O'z paxtasanoat" uyushmasi va "O'zdonmaxsulot" kompaniyasi tizimidagi korxonalariga ko'rsatilgan avtotransport xizmatlaridan yuzaga kelgan debitorlik qarzlarini undirish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilishini so'radi.

Toshkent viloyati, "Bekobod taksi" MChJ rahbari Kamoliddin Xakimov jamiyatga biriktirilgan "Toshkent-Bekobod" yo'nalishiga 12 dona yangi

avtotransport vositalari qo'yilganligini va noqonuniy faoliyat ko'rsatayotgan avtotransport vositalari tashkilot ishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini aytib o'tdi.

Toshkent shahar "Samoinur trans" MChJ ta'rischisi X.Babaev –avtotransport faoliyatini amalga oshirayotgan XYuS ishini yengillashtirish borasida, xususan tashkilotlarda yagona soliq bo'yicha 2015-yildagiga nisbatan yana 1 foizga pasaytirilib, 5 foiz qilib belgilab, to'lovlarni amalga oshirishda transport vositalari sonini 25 tadan 50 tagacha ko'tarilishidagi xizmatlari uchun o'zi va barcha yig'ilish ishtirokchilari nomidan Agentlik boshlig'iga minnatdorchilik bildirdi.

Agentlik boshlig'i barcha savollarga to'la-to'kis javob berib, Agentlik o'z vakolatlari doirasidagi barcha masalalarda tashuvchilarga yordam berishga tayyorligini bildirib, hududiy bo'lim rahbarlariga bu borada tegishli vazifalarni yukladi. Respublika miqyosidagi boshqa tashkilot va muassasalar yordamida bartaraf etiladigan muammolarga doir barcha savollarni V. Ismoilov alohida belgilab olib, o'rnatilgan tartibda ko'maklashishga va'da berdi. Jumladan, Agentlik rahbariyati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini belgilangan kunlarda va soatlarda shaxsan va tegishli mas'ul xodimlar bilan birgalikda qabul qilinishini amalga oshirish va murojaat qiluvchilar uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaralganligini aytib o'tdi.

Toshkent shahar "Aziz-Baxt" MChJ rahbari Baxtiyor Tashibov Agentlikda tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida "Yagona oyna" tashkil etilganligi va tashuvchilarning murojaatlari hamda arizalari o'z vaqtida ko'rib chiqilayotganligidan mamnunligini ta'kidlab, shunday uchrashuvni tashkil etganligi uchun Agentlik boshlig'iga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Shuningdek, V. Ismoilov tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida shaharlararo va xalqaro tashuvlarga litsenziya olish uchun Toshkentga bormasdan, hujjatlarni internet orqali yuborish va tayyor litsenziyalarni hududiy bo'limning o'zida qabul qilib olishga imkon beruvchi tizim ishlab chiqilayotgani va u 2016-yilda joriy etilishini ta'kidlab o'tdi.

Uchrashuv yakunida tadbirkorlarga muammoli masalalar, takliflar va shikoyatlar bilan Agentlik boshlig'iga elektron pochta orqali bevosita murojaat qilish mumkinligi eslatildi.

Albatta bunday ochiq oydin tarzda tashkil etilayotgan uchrashuvlar mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan imtiyozlar, qulay ishbilarmonlik muhitini shakillantirishga xizmat qiladi.